

Utayeva Feruza Xolmamatovna  
Buxoro davlat universiteti dotsenti,  
tarix fanlari falsafa doktori (PhD)

## BUXORO, SAMARQAND VA NAVOIY VILOYATLARIDA TO‘QIMACHILIK SANOATI: TARIXIY TAHLIL

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrda Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarida to‘qimachilik sanoatining rivojlanish bosqichlari, mavjud muammolar hamda ularning yechimlari ilmiy tahlil qilingan. Maqolada viloyatlardagi to‘qimachilik korxonalarining faoliyati, modernizatsiya jarayonlari, eksport salohiyati va texnologik imkoniyatlar qiyosiy tahlil etilgan. Shuningdek, sanoat tarmog‘ida uchrayotgan asosiy kamchiliklar texnologik eskirish, kadrlar masalasi, bozor talablariga moslashish muammolari yoritilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar berilgan. Keltirilgan ma‘lumotlar qator adabiyotlar, manbalar, matbuot materiallari va suhbatlardan olingan ma‘lumotlar asosida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** To‘qimachilik sanoati, klaster, modernizatsiya, eksport, Samarqand, Buxoro, Navoiy, kadrlar masalasi, hamkorlik, savdo-sotiq.

## ТЕКСТИЛЬНАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ БУХАРСКОЙ, САМАРКАНДСКОЙ И НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТЕЙ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

**Аннотация.** В данной статье научно проанализированы этапы развития текстильной промышленности в Самаркандской, Бухарской и Навоийской областях в период после обретения Узбекистаном независимости, существующие проблемы и пути их решения. В статье проведен сравнительный анализ деятельности текстильных предприятий в этих областях, процессов модернизации, экспортного потенциала и технологических возможностей. Также освещены основные недостатки, встречающиеся в отрасли: технологическое устаревание, кадровые вопросы, проблемы адаптации к требованиям рынка, и представлены научно обоснованные предложения по их устранению. Приведенные сведения основаны на анализе ряда литературных источников, материалов прессы и результатов интервью.

**Ключевые слова:** Текстильная промышленность, кластер, модернизация, экспорт, Самарканд, Бухара, Навои, кадровый вопрос, сотрудничество, торговля.

## TEXTILE INDUSTRY IN BUKHARA, SAMARKAND AND NAVOI REGIONS: HISTORICAL ANALYSIS

**Annotation.** This article presents a scientific analysis of the developmental stages of the textile industry in Samarkand, Bukhara, and Navoi regions following Uzbekistan's independence, addressing existing problems and their solutions. The study provides a comparative analysis of textile enterprises' activities in these regions, focusing on modernization processes, export potential, and technological capabilities. Furthermore, it highlights the main challenges faced by the industrial sector, including technological obsolescence, personnel issues, and difficulties in adapting to market demands, offering scientifically grounded proposals to overcome these obstacles. The information presented is based on a comprehensive review of literature, sources, press materials, and interviews.

**Keywords:** *Textile industry, cluster, modernization, export, Samarkand, Bukhara, Navoi, personnel issues, cooperation, trade.*

O‘zbekiston mustaqillik yillarida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa yengil sanoat, xususan to‘qimachilik tarmog‘i iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishiga aylandi. O‘zbekiston paxta xomashyosiga boy bo‘lgani bois, mamlakatda to‘qimachilik sanoatini chuqur qayta ishlash, eksportni kengaytirish, tayyor mahsulot ulushini oshirish strategik maqsadlardandir. Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlarida to‘qimachilik sanoati tarmoqlari bo‘lgan trikotaj, tikuvchilik va zanjirli paxta-to‘qimachilik klaster tizimi takomillashtirildi. Bu o‘rinda “Modernizatsiyalashuv jarayonlari” to‘g‘risida fikr yuritish o‘rinlidir. Modernizatsiya – bu biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o‘zgartirishdir. To‘qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv bu–taraqqiyot talablariga muvofiq yangi texnologik qurilmalarni olib kirish va iqtisodiyotni barqaror sur‘atlarda rivojlantirish, mamlakatimizni dunyodagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga olib chiqish vositasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.[1]

Asosan maqolani yozishda mustaqillik yillarida chop etilgan adabiyotlardan, davriy matbuotdan va tarixiy kitoblarni tarixiy tahlil qilgan holda bayon etilgan. Mustaqillikning dastlabki yillaridan mamlakat xo‘jaligini rivojlantirish uchun olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar to‘qimachilik sanoatida ham joriy etilgan. Chunonchi, 90-yillarning o‘rtalaridan to‘qimachilik sanoatiga xorijiy sarmoyalar jadal kiritila boshlanganligi, Buxoro, Samarqand va Navoiy hududiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan jihatlari va to‘qimachilik korxonalariga moliyaviy mustaqillik berilishi kabi jihatlari o‘rganilib, viloyatlar misolida qiyosiy tarixiy tahlil etilgan.

**Tahlil usullari.** Maqolada tarixiy-xronologik, vorisiylik va izchillik, qiyosiy-tarixiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullardan foydalanilgan. Tadqiqotda tarixiylik va xolislik kabi imiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

To‘qimachilik sanoatini katta qismi zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlantirilgan. Natijada, to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarish va tarmoq hududiy tarkibi takomillashgan.[2] 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan “Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risi”da va 1994-yil 16-martda e‘lon qilingan “Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra o‘rta va yirik korxonalarini aksiyadorlik jamiyatlariga, ijara korxonalariga aylantira boshlandi.

Mustaqillik yillarida respublikada to‘qimachilik sanoatini ustuvor rivojlantirishga katta ahamiyat berilib, ichki va xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish, yangi korxonalar qurish, eskilarini qayta jihozlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, korxonalar mulk shakllarini o‘zgartirish, sanoatning barqaror rivojlanishini ta‘minlash kabilar kun tartibidagi dolzarb masalalar qatoriga kiritilgan. 1991-yil O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyati to‘g‘risida”gi va “Xorijiy investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [3]qonunlar qabul qilingan. Bu qonunlar o‘z navbatida viloyatlar to‘qimachilik sanoatida tub o‘zgarishlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbekistondagi to‘qimachilik sanoati korxonalaridagi dastgohlar talab darajasiga javob bermaganligi, ma‘nan eskirganligi sababli, korxonalarini texnik jihatdan qayta qurish va rekonstruksiya qilish zaruriyati yuzaga chiqdi.[4] Buxoro iqtisodiyotini rivojlanishida to‘qimachilik sanoatidagi tarmoqlarini yangi texnika va texnologiya bilan ta‘minlab butun jahon bozori mahsulotlari bilan raqobatlasha oladigan tovarlar ishlab chiqarishiga e‘tibor qaratildi. Natijada, aholining ish bilan ta‘minlanish darajasi va moddiy farovonligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etdi. Buxoro, Samarqand va Navoiyda to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash bilan birga, jahon to‘qimachilik korxonalarini bilan hamkorlikni kengaytirishga qaratildi. To‘qimachilik sanoatida keng imkoniyatlar yaratish maqsadida AQSh, Italiya, Turkiya, Pokiston, Hindiston, Koreya va Chexiya firmalari bilan hamkorlikda ip-gazlama ishlab chiqaradigan qo‘shma korxonalar tashkil etildi. [5]

1994-yilda dunyoning eng nufuzli to'qimachilik mashinalari ishlab chiqaruvchi Shveysariyaning "Riter" firmasidan avtomatik tizimli yigiruv urchug'i, "Beninger" firmasining tandalash mashinasi, Olmoniyaning "Zukker Myuller" firmasining ohorlash mashinasi va to'quv dastgohlari keltirib o'rnatilgan. Bu texnologiyalar kimyoviy elementlar darajasini to'g'ri taqsimlagan, ishlab chiqarish unumdorligini oshirgan va mahsulot sifatini dunyo bozorida mahsulotlar bilan raqobat qila olishini ta'minlagan.[6] To'qimachilik sanoatida 1991–1995-yillar mobaynida qayta loyihalash va korxonalarni moddiy rag'batlantirish davom etgan.

Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlari tarixan paxtachilik, ipakchilik va hunarmandchilik an'analari kuchli bo'lgan hududlar hisoblanadi. Shuning uchun mustaqillikdan keyingi davrda mazkur viloyatlarda ko'plab to'qimachilik fabrikalari qayta tiklandi, yangilandi yoki qaytadan barpo qilindi. Bugungi kunda uch viloyatda faoliyat yuritayotgan klasterlar, ip yigirish fabrikalari, tikuv-trikotaj kombinatlari respublika yengil sanoatining muhim qismini tashkil etadi.[7]

Shunga qaramay, mintaqalardagi to'qimachilik tarmoqlari hali ham bir qator tizimli muammolardan xoli emas. Energiya tanqisligi, suv resurslari heklanganligi, texnologik eskirish, malakali kadrlar tanqisligi, logistika xarajatlari, bozor talablariga moslashish kabi masalalar korxonalar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi mintaqalardagi to'qimachilik tarmog'i faoliyatini ilmiy asosda o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini ishlab chiqishdan iborat.

Viloyatlarda 1991–2024-yillar davomida qabul qilingan yengil sanoat dasturlari, statistika ma'lumotlari, rasmiy hisobotlar, ochiq manbalardagi ma'lumotlar o'rganildi. Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi korxonalar ishlab chiqarish hajmi, eksport ulushi, texnologik darajasi va bandlik ko'rsatkichlari taqqoslab o'rganildi. Mavjud korxonalar haqida ochiq manbalardan olingan amaliy ma'lumotlar asosida fabrika faoliyati, texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish quvvatlari tahlil qilindi.

Samarqand viloyatida to'qimachilik sanoati faoliyatidagi asosiy fabrikalar "Samarqand ip-yigiruv", "Siyob Textile", "Iman Textile", "Sam Rafoat Textile", "Euroasia Textile Samarqand", Urgut, Kattaqo'rg'on va Pstdarg'om klasterlari faoliyatida Samarqand viloyatida to'qimachilik korxonalari asosan ip-kalava, gazlama, trikotaj mato va tayyor tikuv mahsulotlari ishlab chiqaradi. Hamkor davlatlar Germaniya, Turkiya va Janubiy Koreya texnologiyalaridan foydalaniladi.

Samarqand viloyat bo'yicha yillik ip-kalava ishlab chiqarish hajmi yaxshi natijalar bermoqda. Korxonalarda muammolar ham mavjud bo'lib, jihozlar eskirgan (ayrim korxonalar 2000-yillar boshi texnologiyalari bilan ishlaydi), energiya sarfi yuqori, dizayn maktabi yetarli darajada shakllanmagan holatlar eksportda tayyor mahsulot ulushini pasayishiga ham olib keladi.

Buxoro viloyatida to'qimachilik sanoati faoliyatidagi asosiy fabrikalar "Bukhara Cotton Textile", "Buxoro Textile", "Kogon Cotton Textile", "Sitorah Tex Group", "Brilliant Textile Buxoro", "G'ijduvon Textile Cluster". Faoliyat xususiyatlari Buxoro viloyati respublikada paxta xomashyosini qayta ishlash bo'yicha yetakchi hududdir. Ko'plab klasterlar to'liq ishlab chiqarish zanjiriga ega. Paxta yetishtirishdan tola, ip-kalava, gazlama va tayyor mahsulot holiga keladi. Yillik ishlab chiqarish hajmi ip-kalava 200 ming tonnaga yaqin, gazlama 120 million metr va tayyor mahsulotlari 35–45 million dona. Fabrikalarda muammolar mavjud bo'lib, bo'yash bo'yicha sharoitlarning kamligi, ekologik jihatdan ham muammolar mavjud. [8]

Navoiy viloyatida to'qimachilik sanoati faoliyati fabrikalardan "Navoiy Textile", "Zarafshon Cotton Textile", "Karmana Textile", "Navoi Eurotextiles" va boshqalar. Jumladan, 2006-yilda "Baxt tekstil" qo'shma korxonasi o'z faoliyatini boshlagan. Ushbu qo'shma korxonaning to'liq quvvati yiliga 7500 tonna paxta tolasi qayta ishlashga teng bo'lib, har xil turdagi to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqargan. 700 nafar ishchi-xodimlar mehnat qilgan. Navoiy viloyati to'qimachilik sohasida tez rivojlanayotgan hududlardan. Erkin iqtisodiy zonada chet el investitsiyalari hisobiga zamonaviy yigiruv va to'qish korxonalari barpo etilgan. Yillik ishlab chiqarish ip-kalava 120 ming tonnage teng.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarida mustaqillik yillarida to'qimachilik sanoati sezilarli darajada rivojlandi, ko'plab zamonaviy

- 16 korxonalar ishga tushdi va eksport salohiyati ancha oshdi. Biroq sohaning barqaror rivojlanishi uchun texnologik modernizatsiya, kadrlar malakasini oshirish, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni o'rnatish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar talab etiladi. Shuning uchun to'qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun qator chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Пардаев М.К., Мамасоатов Т.Х., Пардаев О.М. Модернизация, диверсификация ва инновация - иқтисодий ўсишнинг муҳим омиллари. – Тошкент: Наврўз, 2014. – Б. 18. (Pardayev M.K., Mamasoatov T.Kh., Pardayev O.M. Modernization, diversification and innovation - important factors of economic growth. - Tashkent: Navröz, 2014. - P. 18.)
2. Ҳамроев С.А. Тўқувчилик технологияси. – Тошкент: Фан, 2005.–Б.7.(Hamroyev S.A. Textile Technology. - Тошкент, 2020. - P. 7.)
3. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг ташқи иқтисодий фаолияти тўғрисида” ги қонунга ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритиш ҳақида. // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. – Тошкент, 1992. 9 - сон. (On Amendments and Additions to the Law of the Republic of Uzbekistan "On Foreign Economic Activity of the Republic of Uzbekistan." // Bulletin of the Supreme Council of the Republic of Uzbekistan. - Тошкент, 2020. Issue 9.)
4. Нуруллаев Т.Д. Современное состояние экономики Узбекистана и проблемы и перехода к рынку // Общественные науки в Узбекистане; 1990, №12. – С. 6. (Nurullaev T.D. The current state of the economy of Uzbekistan and the problems and transition to the market // Social Sciences in Uzbekistan; 1990, No. 12. - P. 6.)
5. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. 5 жилд – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 384. (Karimov I.A. New thinking and working - the demand of the time. Volume 5 - Tashkent: Uzbekistan, 1997. - P. 384.)
6. Исҳоқов Ш. Тўқимачилик кимёси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – Б. 22. (Is'hoqov Sh. Textile Chemistry. - Tashkent: Uzbekistan, 1995. - P. 22.)
7. Utayeva, F., Sharipova, P., & G'ayratjon qizi Rahmatova, R. F. (2023). Mustaqillik yillarida buxoro to'qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari. Scientific journal of the Fergana State University, (6), 61-61.
8. Utayeva F. Mustaqillik yillarida buxoroda toqimachilik sanoatining rivojlanishi // Центр научных публикаций (bukhdu. uz). – 2022. – т. 18. – №. 18.( Utayeva F. Development of the textile industry in Bukhara during the years of independence // Tsentr nauchnyx publikatsiy (bukhdu. en). - 2022. - t. 18. – no. 18.)